

RAQAMLI MAKONDA MADANIY IDENTIFIKATSIYA VA O'ZLIK MUAMMOSI

Sodiqov Islombek Otabek o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

sodislom@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli makonda madaniy identifikatsiya va o'zlik muammosi tahlil qilinadi. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonning ijtimoiylashuvi, o'z o'zini anglash jarayoni hamda madaniy mansublik tushunchasi tubdan o'zgarib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual hamjamiyatlar va raqamli platformalar shaxs identifikatsiyasining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Maqolada raqamli muhitda shakllanayotgan ko'p qatlamli identifikatsiya, "virtual o'zlik" fenomeni hamda an'anaviy va raqamli madaniyat o'rtasidagi ziddiyatlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida raqamli makon, raqamli muhit shaxsning madaniy o'zligini transformsiya qiluvchi omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: raqamli makon, identifikatsiya, raqamli identitet, globallashuv, virtual ijtimoiy makon, madaniy transformsiya, axborot jamiyati.

ПРОБЛЕМА КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ИДЕНТИЧНОСТИ В ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Содиков Исламбек Отабек оглу

Аспирант Национального университета Узбекистана имени Мирзо

Улугбека

sodislom@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется проблема культурной идентичности и идентичности в цифровом пространстве. В результате глобализации и стремительного развития информационно-коммуникационных технологий мы видим, что социализация человека, процесс самосознания и концепция культурной принадлежности радикально меняются. Интернет, социальные сети, виртуальные сообщества и цифровые платформы создают новые формы личной идентификации. В статье научно анализируется феномен

многослойной идентичности, «виртуальной идентичности» и конфликты между традиционной и цифровой культурой, формирующиеся в цифровой среде. В результате исследования оцениваются цифровое пространство и цифровая среда как фактор, трансформирующий культурную идентичность человека.

Ключевые слова: *цифровое пространство, идентификация, цифровая идентичность, глобализация, виртуальное социальное пространство, культурная трансформация, информационное общество.*

THE PROBLEM OF CULTURAL IDENTITY AND IDENTITY IN THE DIGITAL SPACE

Sodikov Islambek Otabek ugli

PhD student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo

Ulugbek

sodislom@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the problem of cultural identity and identity in the digital space. As a result of globalization and the rapid development of information and communication technologies, we can see that human socialization, the process of self-awareness, and the concept of cultural belonging are radically changing. The Internet, social networks, virtual communities, and digital platforms are creating new forms of personal identification. The article scientifically analyzes the phenomenon of multilayered identity, "virtual identity", and the conflicts between traditional and digital culture that are being formed in the digital environment. As a result of the research, the digital space and the digital environment are evaluated as a factor transforming the cultural identity of a person.

Keywords: *digital space, identification, digital identity, globalization, virtual social space, cultural transformation, information society*

KIRISH

XXI asrda insoniyat hayoti raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelmoqda. Internet, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va global kommunikatsiya tizimlari inson tafakkuri, uning psixikasi, ijtimoiy munosabatlari hamda madaniy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy tarix va adabiyot namunalarini o'rganish shaxsning madaniy identifikatsiyasini hamda milliy o'zligini

anglash jarayonini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi ¹. Misol uchun A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida o‘zbek jamiyatining tarixiy hayoti, ularning urf-odat, milliy qadriyatlari mukammal tarzda tasvirlangan.

Ilgari madaniy identifikatsiya asosan milliy, hududiy yoki an’anaviy ijtimoiy institutlar orqali shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda u tobora ko‘proq raqamli makon ta’siri ostida yuz bermoqda. “Simulacres et Simulation” muallifi Jean Baudrillard zamonaviy jamiyatni “simulyatsiyalar makoni” sifatida talqin qilib, reallik va virtual reallik o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib borayotganini ² ta’kidlagan edi. Bugungi raqamli madaniyat aynan shu nazariy qarashlarning amaliy tasdig‘iga aylanib bormoqda. Shuningdek, Manuel Castells tomonidan ilgari surilgan “tarmoq jamiyati” (network society) konsepsiyasi ham raqamli makonda identifikatsiya jarayonlarini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. “Tarmoq jamiyatida shaxs o‘zini faqat mahalliy ijtimoiy muhit orqali emas, balki global axborot oqimlari orqali ham identifikatsiya qiladi”³. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli makonda madaniy identifikatsiya va o‘zlik muammosining falsafiy hamda ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Madaniy identifikatsiya shaxsning muayyan madaniyat, qadriyatlar tizimi, til, an’ana va tarixiy xotira bilan o‘zini bog‘lash jarayoni. Ya’ni, insonning qaysi millatga, qadriyatga mansubligini, kelib chiqish tarixini, o‘zligini anglash demakdir. Masalan, o‘zbek millatiga xos bo‘lib o‘zbekcha so‘zlash, Navro‘z milliy bayramini hamda undagi taomlarni sevish kabilarni aytish joizdir. Hozirda ko‘plab yoshlar o‘qish yoki mehnat qilish sababi bilan xorijda istiqomat qilayotgan bir vaqtda o‘z milliy urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini saqlab qolishi madaniy identifikatsiyasini saqlab qolishining yorqin namunasidir. Aynan mana shu jarayonni saqlash milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishiga, jamiyatda birlik va barqarorlikni saqlanishiga, eng asosiysi, shaxsning o‘zligini saqlab qolishi uchun ham ahamiyatlidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta virtual hamjamiyat a’zosi bo‘lishi mumkin. Masalan, milliy identifikatsiyaga ega bo‘lgan inson global geymerlar, bloggerlar yoki professional ijtimoiy tarmoq hamjamiyatlarida butunlay boshqa identitet bilan namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bir vaqtning o‘zida bir necha identitet sifatida namoyon bo‘lish mumkin.

¹ A.Qodiriy O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.

² Baudrillard J. *Simulacra and Simulation*. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. – P. 1–7.

³ Castells M. *The Rise of the Network Society*. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2010. – P. 3–25.

O'zlik muammosi insonning o'zini anglash jarayoni, ya'ni shaxsning kimligi, qaysi qadriyat va ijtimoiy guruhlariga mansubligini tushunishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisadir. O'zlik muammosi insonning o'zini anglash jarayoni, ya'ni shaxsning kimligi va qaysi ijtimoiy hamda madaniy guruhlariga mansubligini tushunishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir⁴. O'zlik (identitet) shaxsning madaniy, milliy, diniy, til va ijtimoiy tajribalari asosida vujudga keladi. Bu jarayonda inson o'zining shaxsiy tajribasi, atrof-muhit ta'siri hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar orqali o'zini anglay boshlaydi. Bu jarayon "men kimman?", "qaysi qadriyatlarga mansubman?", "mening ijtimoiy kelib chiqishim qayerdan boshlangan?", "jamiyatda qanday aloqam bor?" kabi savollardan kelib chiqadi. Masalan, inson globallashuv jarayonida tuli xil millat va elat vakillarining g'oyalarini, ijtimoiy tarmoqlardagi turmush tarzlarini ko'rib, "men milliy qadriyatlarga amal qilamanmi?", "meni tanlagan yo'lim qanday?" kabi ichki kurashlar orqali o'zlik muammosini o'rta tashlaydi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida insonning ma'naviy kamoloti, adolat, axloq va komillik g'oyalari keng yoritilgan. Asarda inson o'zini anglab, ma'naviy jihatdan kamol topishi kerakligi ta'kidlanadi. Xususan, Navoiy insonning komillikka intilishi orqali jamiyat ham rivojlanishini ko'rsatadi. Shaxsning o'zligini anglash va ma'naviy kamolotga intilishi Sharq mutafakkirlari merosida ham muhim o'rin tutadi⁵. An'anaviy jamiyatda o'zlik asosan oila, mahalla, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, milliy madaniyat va tarixiy an'analar orqali shakllangan bo'lsa, zamonaviy globallashuv davrida bu jarayon an'anaviy jamiytdagiga qaraganda ko'p qirrali shaklda namoyon bo'ladi. Xususan, raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar insonning o'zini ifodalash va tanishtirish usullarini tubdan o'zgartirib yubordi. Globallashuv davrida o'zlikning namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qildik.

Madaniy ta'sirlar aralashuvi. Shaxs bir vaqtning o'zida ham milliy madaniyat ham global madaniyat ta'sirida yashaydi. Oxir oqibat tuli xil madaniyat elementlari aralashishi natijasida yangi bir identifikatsiya shakllari paydo bo'ladi.

Individual o'zlikning kuchayishi. Globallashuv davrida inson faqatgina jamiyat yoki an'ana, qadriyatlar bilan emas, o'z qiziqishlari, qarashlari va imkoniyatlari orqali munosabatga kiradi.

Raqamli makonda o'zlik. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali inson o'zini virtual muhitda ham namoyon qiladi. Ba'zan real hayotdagi o'zlik bilan virtual o'zlik o'rtasida farq paydo bo'lishni boshlaydi.

⁴ Erikson, E. H. *Identity: Youth and Crisis*. New York: W. W. Norton & Company, 1968.

⁵ A. Navoiy *Hayrat ul-abror*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2006.

Global identifikatsiya. Inson o'zini millat yoki hudud bilan chegaralanmay, butun jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi. Globallashuv jarayonida o'zlik dinamik, ko'p qirrali hamda o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u milliy qadriyatlar, global madaniyat va raqamli muhit ta'siri ostida shakllana boradi.

Raqamli makon shaxsga o'zini erkin namoyon etish, turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilish va yangi identitet shakllarini yaratish imkonini beradi. Raqamli makonda o'zlik muammosi esa internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida insonning o'z shaxsiy hayoti, identifikatsiyasi va ijtimoiy rolini qanday anglashi va namoyon etish jarayoni hisoblanadi. Shu bilan birga, bu jarayon ayrim muammolarni ham yuzaga keltiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda inson o'zining haqiqiy shaxsidan farqli ravishda ideal yoki sun'iy obraz yaratishi mumkin. Natijada real o'zlik va virtual o'zlik o'rtasida tafovut paydo bo'lishi ehtimoli ortadi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar shaxsning o'zini namoyon etish shakllarini o'zgartirib, yangi identitet modellari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda⁶. Raqamli makonda o'zlik virtual identifikatsiya, real va virtual o'zlik o'rtasidagi tafovut, global madaniyatlar ta'siri hamda shaxsiy erkinlikning kengayishi kabi jarayonlarda sodir bo'ladi.

Bundan tashqari, global raqamli madaniyatning keng tarqalishi ayrim hollarda milliy va madaniy o'zlikning zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki internet orqali turli madaniyatlarning aralashuvi sodir bo'ladi va bu jarayon yosh avlodning o'z milliy qadriyatlariga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Madaniy jarayonlar va o'zlik muammosi har bir davr uchun muhim dolzarb masalalardan biridir. Temuriylar davridan tortib to jadid pedagogikasi va milliy o'zlikni shakllantirish muammosi hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. Hozirda raqamli makon sharoitida yoshlarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirish masalasi avvalo tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Abdulla Avloniy o'zining asarida yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi bilan bog'liq ekanini ta'kidlab, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir."⁷ deya ta'rif berib yoshlarni tarbiya jarayoniga befarq bo'lmaslikka chaqiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli makon zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy identifikatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Global axborot oqimi sharoitida insonning o'zligini anglash jarayoni murakkablashib, milliy qadriyatlar va madaniy an'analarni saqlab qolish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan madaniy identifikatsiya hamda o'zlikni anglash nafaqat shaxsning o'zini

⁶ Castells, M. **The Power of Identity**. Oxford: Blackwell Publishers, 1997.

⁷ A.Avloniy. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

muayyan madaniyat vakili sifatida anglashini, balki uning tarixiy xotira, qadriyat, til va ma'naviy meros bilan uzviy bog'liqligini ham ifodalaydi. Milliy adabiyot va uni o'rganishga qaratilgan o'quv qo'llanmalari shaxsning madaniy o'zligini shakllantirishda muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari yosh avlod tarbiyasi orqali milliy ong va o'zlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatganligi fikrimizni tasdig'li sifatida qaraladi. Bunday g'oyalar bugungi raqamli makonda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, milliy adabiyot namunalarini o'rganish shaxsning tarixiy xotirasini mustahkamlab, uning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlarida milliy hayot, urf-odatlar va tarixiy jarayonlar tasviri orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasi yoritilib, milliy o'zlik masalasi badiiy va ilmiy talqin etilgan. Demak, raqamli makon sharoitida madaniy identifikatsiya muammosini hal etishda milliy adabiyot va o'quv qo'llanmalari muhim ma'naviy tayanch vazifasini bajarib kelmoqda. Ular shaxsga global axborot makonida o'z milliy o'zligini anglash va saqlab qolish imkonini bermog'da. Shu bois ta'lim tizimida milliy adabiyot namunalarini zamonaviy pedagogik va raqamli vositalar orqali o'qitish yoshlarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashda muhim omil ekanligini ushbu tadqiqotda ham ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda raqamli makon sharoitida madaniy identifikatsiya jarayonlarini tahlilini to'g'ri yuritib, yoshlar orasida o'zbek milliy adabiyoti hamda o'quv qo'llanmalari asosida milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tushunchalari orqali ochib berildi.

Bundan tashqari, maqolada raqamli identifikatsiya va milliy identifikatsiya o'rtasidagi o'zaro ta'sir yangi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tahlil qilindi. Bu ikki jarayonni bir biridan ajratib turuvchi holatlar va ularning xususiyatlari bevosita tahlil qilindi.

Navbatdagi yangilik sifatida tadqiqotda o'zbek adabiyoti asarlari yoshlarning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda raqamli davrda ham ideologik, g'oyaviy hamda ma'naviy resurs vazifasini bajaradi. Ya'ni, o'zbek milliy adabiyoti namunalari yoshlarning raqamli makondagi madaniy identifikatsiyasini shakllantiruvchi ma'naviy resurs sifatida talqin qilindi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarni milliy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish uchun muhim qadam bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Navoiy *Hayrat ul-abror*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2006.
2. A. Avloniy *Turkiy Guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

3. A.Qodiriy O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
4. Baudrillard J. *Simulacra and Simulation*. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. – P. 1–7.
5. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2010. – P. 3–25.
6. Erikson, E. H. *Identity: Youth and Crisis*. New York: W. W. Norton & Company, 1968.